

**UYG'ONISH DAVRI VA XVII ASR KLASSITSIZM TEATRI
ITALIYA TEATRI**

Sultonov Dostonbek

O'zDSMI FMF

“Dramatik teatr rejissorligi” 4-bosqich
talabasi

sultonovdoston07@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14015936>

Annotatsiya: bu maqolada uyg'onish davri va XVII asr klassitizm teatri haqida va uning ilknamoyondalari rejisyorlari hamda san'at ustalari haqida va jahonnin ilk teatri haqida juda ham qiziqarli va foydali ma'lumotlar keltrilgan.

Kalit so'z: rejissyor, aktyor, spektakl, rassom, repertuar.

Melodiy eraning V asrida Rim imperiyasi qulagach, xristianlik mafkurasining kuchli tazyiqi ostida antik davrda yaratilgan badiiy yodgorliklar qatag'onga uchraydi, Yunoniston va Rimda dunyo yuzini ko'rgan san'at asarlari, teatr an'analari unutila boshlaydi. Cherkov o'z teatrini yaratadi: ibodat dramasi, mirakl, misteriya, moralite yetakchi janrga aylanib, keng ommani nasroniylik g'oyasi atrofida uyushtirishda eng ta'sirli targ'ibot vositasiga aylanadi. Ayni chog'da san'ati qishloq marosim tomoshalari asosida tug'ilib, ommaning erkparvarlik kayfiyatini ifoda etgan xalq teatri namoyandalari — gistrionlar san'ati ham yashashda davom etdi. Bu davrga kelib, dunyoviy shukuhbaxsh teatr san'atining keng taraqqiy etishi uchun o'rta asrcha mutaassibona qarashlarga to'siq bo'la oluvchi yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishi talab etilardi. Shunday ijtimoiy munosabatlar Ovro'po mamlakatlarida XIV— XVI asrlarda ro'y berdi. Tarixga Uyg'onish (Renessans — fr. Renatssance) davri sifatida kirgan bu ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot davri Ovro'po teatr san'ati tarixida yangi rivojlanish davrini belgilab berdi. Erkin, hur inson aynan Uyg'onish davrida jamiyatning oliy tilagiga aylanadi. Yaqin o'tmishda dag'al masxarabozlik, aqidaparastlik makoni bo'lib kelgan sahna endi ulug'vor g'oyalar, teran falsafiy mushohadalar maskaniga, umumxalq minbariga aylanadi. Sahnada zamonning ur-yiqitlari o'z aksini topadi, nozik, ruhiy kechinmalar tadqiq etiladi; shu bilan birga tomoshabinlar ichakuzar sahnaviy hazil-mutoyiba va hangomalami zavq-shavq bilan qarshi oladilar.

Renessans davri teatri XV—XVI asrlar bo'sag'asida Italiyada shakllanadi, so'ng Ispaniyada yangi taraqqiyot bosqichiga kirib Angliyada Shekspir zamonida kamolot cho'qqisiga ko'tariladi. Iqtisodiy taraqqiyot dastlab Italiyada boshlanadi. Italiya qulay jo'g'rofik shart-sharoitga ega bo'lganidan G'arbiy



Ovro'poning boshqa mamlakatlari qaranganda avvalroq Sharq mamlakatlari bilan yaqin aloqa o'rnatadi va bu Italiya shaharlarining qisqa vaqt ichida boyib ketishiga sabab bo'ladi. Italian savdogarlari Turkistonning turli shaharlarida savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'yadilar. Shu bahonada ular bu sarhadlarda yaratilgan san'at asarlarini qo'lga kiritishni ham unutmaydilar. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, ulug' Navoiy asarlari XVI asrda italyan tiliga tarjima qilina boshlangani bejiz bo'lmasa kerak. Italiyaning yangi davr teatr san'ati rivojiga qo'shgan hissi beqiyos: aynan shu zaminda tragediya, komediya, pastoral (cho'ponnoma) yangi taraqqiyot yo'liga kirdi, opera yaratildi, drama san'atining asosiy qonuniyatlari ishlab chiqildi, birinchi teatr binolari qad ko'tardi, spektaklni yangicha bezash tamoyillari joriy etildi. Italiyaning dramaturgiya sohasida boshlovchilik mavqeyini egallashi uning qadimgi Rim badiiy merosining vorisi va uni qayta o'zlashtiruvchisi sifatida maydonga chiqishi bilan belgilandi. Plavt, Terensiy, Seneka asarlari awal lotincha, so'ng yangi italyan tiliga o'girilgan holatda zodagonlar saroylarida ko'rsatiladi. Shu zaylda original asarlarga yo'l ochiladi. Jahonga mashhur «Telba Roland» dostonining muallifi ulug' italyan shoiri Ludaviko Ariosto (1474—1533) yangi teatr mash'alani yoqqanlardan biri bo'ldi. ITALIYA TEATRI 41 laylarini ostonasi oldiga qorovul qilib qo'yib, uylariga faqat qalloblar, qo'shmachilar, turli qalang'i-qasang'i zotlami qo'yadilaru halol, oliyanob fuqarolami oldiga solib haydaydilar..». Serhasham va dabdabali bezak, sururli lavhalar va ayniqsa, malaylarning oldiqochdi hangomalari, oshiq-ma'shuqalaming gashtli uchrashuvlariga boy bu spektakl saroy zodagonlarida teatr san'atiga nisbatan katta qiziqish va ixlosmandlik tuyg'ularini belgilab bergan edi. Ariosto «Almashilganlar», «Talabalar», «Afsungai», «Qo'shmachi» komediyalarida ham o'z shahri Ferrara hayoti haqida hikoya qilgan. Zodagonlar dilxushligiga qaratilgan ko'plab komediyalar o'z vazifasini o'tab, tarix sahifasidan tushib qolgani tabiiy. Lekin Uyg'onish davri italyan komediyalari orasida bir asar borki, u hamon yashashda davom etib, teatr sahnalarini bezab keladi. Bu Nikollo Makiavelli (1469—1527) qalamiga mansub «Mandragora» (1514) asaridir. Atoqli yozuvchi, tarixchi Makiavelli bu asarida Ariosto an'anasini davom ettirib, komediya san'atini yangi bosqichga olib chiqdi. Yangi davr hayotiga teranroq nazar tashlagan kishi behuda shodlik uchun asos topolmasligi aniq edi. Makiavelli komediyasida o'kinchli kechinmalar hajv ohanglariga qorishiq tarzda ifodalangan. Makiavelli zamonaviy hayot haqida o'tkir hajviy komediya yaratish bilan italyan «ma'rifiy komediya»si tarixida yangi yo'nalishni belgilab berdi. Makiavelli asaridan so'ng Petro Aretino, Jordano Bruno kabi adiblar bir qator



hajviy komediyalar yaratdilar. Italian komediyanavislari o'z pyesalariga sahna asarlari tarzida emas, ko'proq o'qishga mo'ljallangan adabiy asar sifatida qaraganlar. Shu bois «ma'rifiy komediya*» namunalari sahnaboplik jihatidan yuqori saviyaga ko'tarilmadi va ulami sahnalashtirish odat tusiga kirmadi. Uyg'onish davri italyan komediyasi qadimgi rim namunalari taqlidan yaratilgan bo'lsa, tragediya sohasida Sofokl, Yevripid va, asosan, Seneka asarlarida qo'llanilgan mif, xor va yozuv qoidalari to'laligicha qabul qilib olindi. Aristotelning «Poetika»sida ilgari surilgan xatti-harakat birligi qoidasi italyan nazariyachilari tomonidan uning yoniga yana o'rin va vaqt birligi qo'shilgan holda ishlab chiqildi va amalga joriy etildi. Dramaturglarni, ayniqsa, qonli voqealar qiziqtirardi: bu davrda yaratilgan tragediyalarning birortasi qonli intiqom, ko'r-ko'rona rashk, shafqatsizlik dahshatlaridan xoli emas. Tragediyaning besli pardadan iborat bo'lishi, she'riy tarzda yozilishi va, tabiiyki, uch birlik qoidasiga bo'ysundirilishi belgilab qo'yildi. Keyinroq bu qoidalar fransuz klassitsizm teatri uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Yangi davr teatr me'morchiligida ham Italiya namuna bo'lib xizmat qilgan. Italiya me'mori Sebastyan Serlio qadimgi rim me'mori Vitruviy asarlari asosida 1545-yili «Me'morchilik haqida*» kitobini yozib, unda antik teatrning ba'zi jihatlari bilan zamonaviy teatr uyg'unligi talabini olg'a surdi. Serlio loyihasini o'zi amalga oshirolmadi, me'mor Andre Palladio shu loyiha asosida Vichense shahrida «Olimpiya» teatrlarini tiklaydi. Bino 1580-yili qurila boshlangan, Palladionning o'g'li va shogirdi Vincheniye ishni davom ettiradi va teatr 1585-yili Sofoklning «Shoh Edip*» asari bilan ochiladi. Binoning eng afzal jihati uning tomosha zali bilan sahnaning o'zaro uyg'unligi (ko'rish, eshitish)da edi. Sahna ortida qad ko'tarilgan uchta ulkan ark orqali uzoqlikka cho'zilgan ko'chalar go'zal shahar timsolini yaratadi, old sahna tepaligi-peshtoqiga va yarim doira shaklidagi zalning orqa devorlariga ishlangan haykal va tasvirlar bilan ajib uyg'unlik kasb etgan edi. Ming kishiga mo'ljallangan ushbu teatr binosi hozirda ham mavjud. XVII asrda ko'p yarusli, balkon va lojalarga ega uch minglatomoshabin sig'adigan teatr binolari qad ko'taradi. Italian me'morlari teatr qurilishi sohasidagi yutuqlarini Ovro'poning Avstriya, Ispaniya, Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlariga olib kirganlar. Tragediya, komediya va pastoral janrlarida yaratilgan asarlar umumxalq mulkiga aylanolmadi. Bu asarlar zodagonlar saroylarida, alloma ziyolilar doiralarida havaskorlar ijrosida vaqti-vaqti bilan namoyish etib kelingan. Keng xalq orasida italyan san'atining boshqa turi, ya'ni niqoblar komediyasi — komediya del arte — badihaviy italyan professional teatri shuhrat qozondi.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov E. Teatrda badiiy obraz yaratishning estetik tamoyillari. -T.: Star poligraf. 2011.
2. Salimov O. Kasbim rejissor. -T.: G'.G'ulom, 2009.
3. Raimov A., Raimova N. Hikmatlar shodasi. -T.: O'zbekiston. 2013.

